



## O'ZBEKISTONDA ZAYTUN YETISHTIRISH VA ZAYTUN MOYI ISHLAB CHIQRISH

Toshpo`latova Hilola Toshboltayevna<sup>1</sup>, Qurbonova Nafisa Avaz  
qizi<sup>2</sup>, Xolbozorova Madina Ravshan qizi<sup>3</sup>

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

tel: +998917173302

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7214031>

### ARTICLE INFO

Received: 01<sup>st</sup> October 2022

Accepted: 10<sup>th</sup> October 2022

Online: 17<sup>th</sup> October 2022

### KEY WORDS

Zaytun, zaytun moyi, Yevropa,  
Osiyo, Maerika, Afrika Xalqaro  
Bitim, Zaytun plantatsiyasi

### ABSTRACT

*Zaytun (Olea) — zaytundoshlar oilasiga mansub o'simlik turkumi. Zaytun bebaho subtropik o'simliklardan biri. Zaytun daraxtini O'zbekistonning janubida iqlimlashtirib, novdalardan ko'paytirib o'stirish mumkin. Janubiy Akademik M.Mirzayev nomli bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti "Surhondaryo ilmiy ta'mirlash stansiyasi" va Zaytunni ko'k novdalaridan ishlab chiqarish bo'yicha ilmiy tadqiqiy ishlari olib borilmoqda. Tajribalarda shuni ko'rishdiki, ko'k novdalar erta bahor va kuz oylarida tayyor handaqlarga ekilib, issiq haroratda saqlanib turiladi. Kuzda tayyorlangan qalamchalar bahordagiga nisbatan tutib ketishi yuqoriroq buladi. Qalamchalar asosan ko'k novdalarning 3 xil qismidan tayyorlanadi. Pastki qalin novdalar uzoq vaqt yashil holda turib, so'ngra o'z hususiyatini yo'qotishi ko'proq kuzatildi. Kuzgi mavsumda qalamchalar tayyorlanib handaqlarga 3 variant da ekiladi.*

**Kirish:** 2021 yil 2 avgustdagi «Zaytun moyi va zaytun mevasi to'g'risidagi xalqaro bitimga (Jyeneva, 2015 yil 9 oktabr) O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi haqida»gi qonun qabul qilindi.

Zaytun moyi va zaytun mevasi to'g'risidagi xalqaro bitim 2015 yil 9 oktyabrda Jyenevada qabul qilingan. Bitimning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

-standartlashtirish va tadqiqotlar sohasida:

-savdoda har qanday to'siqlarning oldini olish uchun zaytun moyi va ozuqabop zaytun mevasining fizik-kimyoviy va

organoleptik xususiyatlariga oid milliy va xalqaro qonunchilikni birxillashtirishga ko'maklashish;

-xalqaro standartlarni mustahkamlash maqsadida zaytun mahsulotlarining tarkibi va sifat xususiyatlari to'g'risidagi bilimlarni kengaytirish uchun fizik-kimyoviy va organoleptik tahlil ishlarini amalga oshirish;

-firibgarlik va chalg'ituvchi amaliyotlar hamda qalbakilashtirishning oldini olish;



zaytunchilik, zaytun moyi ishlab chiqarish texnologiyasi va texnik hamkorlik sohasida:

-davlat yoki xususiy organlar va/yoki tashkilotlar o'rtasida milliy va xalqaro darajada hamkorlikni kengaytirish orqali zaytunchilik tarmog'ida texnik hamkorlik hamda tadqiqotlar va ishlanmalarni rag'batlantirish;

-zaytun daraxtlarining genetik manbalarini aniqlash, saqlab qolish va foydalanishga oid ishlarni amalga oshirish;

-zaytunchilik va atrof muhit o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni, xususan, atrof muhitni muhofaza qilishga hamda ushbu sektorni kompleks va barqaror rivojlantirishni ta'minlash va uzluksiz ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishga ko'maklashish maqsadida o'rganib chiqish va boshqalar.

Hujjat Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasida e'lon qilingan va 3.08.2021 yildan kuchga kirdi.

**Asosiy qism.** Hukumat tashabbusi bilan Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida 530 gektardan ortiqroq maydonda zaytun plantatsiyasi barpo etilishi rejalashtirilmoqda. Yaqin yillarda O'zbekiston zaytun moyi ishlab chiqaradigan mamlakatlar qatoriga

qo'shilishni rejalashtirmoqda. Xususan, joriy yilning mart oyi oxirlarida respublikaning janubiy viloyatlarida 530 gektar, shu jumladan, Surxondaryo viloyatining Oltinsoy, Muzrabot va Uzun tumanlarining har birida 100 gektardan, Termiz, Jarqo'rg'on, Sariosiyo va Bandixon tumanlarining har birida 50 gektardan, Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod tumanida 30 gektar maydonda zaytun plantatsiyasi barpo etilishi bo'yicha ma'lumotlar e'lon qilindi.

Mamlakatda 10 darajagacha bo'lgan sovuqqa chidamli Arbusano (Italiya), Arbikino (Italiya), Manzaniya va Kolores (Ispaniya) hamda Gemlik (Turkiya) navli 465 ming tup zaytun ko'chati o'tqazilishi ko'zda tutilmoqda.

«O'zyog'moysanoat»ning ma'lum qilishicha, respublika aholisining o'simlik moyiga bo'lgan talabi mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan 55 foizga ta'minlanmoqda, ichki bozor ehtiyojining 45 foizi import hisobiga qoplanmoqda. Bu qaror qabul qilinishi mamlakatda yog'-moy mahsulotlarini arzonlashtirish zarurati bilan izohlangan.

Ma'lumot uchun, hozirda O'zbekiston aholisining o'simlik moyiga bo'lgan yillik



talabi 475 ming tonnani tashkil etadi. Yog'moy korxonalari esa yiliga 259 ming tonna o'simlik moyi ishlab chiqarmoqda.

Hozirgi kunda O'zbekiston aholisi orasida kungaboqar va paxta moylari mashhur hisoblanadi. Bundan tashqari, zaytun moyining narxi kungaboqar va paxta moyi bilan solishtirganda ancha yuqori va uni ishlab chiqarish ancha qimmatga tushadi.

O'zbekistonda zaytun daraxtini yetishtirish tarixi 2002 yildan boshlangan, unga qadar Markaziy Osiyoda hech qachon zaytun o'stirilmagan. 2002 yil fevralida Turkiyadan 4 tup zaytun daraxti ko'chati olib kelingan. Ular subtropik mintqa bo'lgan Surxondaryo viloyatiga ekilgan. O'zbekistonda zaytun yetishtirish bo'yicha birinchi tajribalar mana shunday boshlangan.

Biroq 2007-2008 yilgi sovuq qish bu tajribalarni to'xtatadi, chunki 2008 yil yanvarida tunda harorat tez-tez 10 darajagacha pasayib ketishi natijasida barcha zaytun daraxtlari nobud bo'lgan.

O'zbekiston delegatsiyasi 2020 yil iyul oyida videokonferensiya shaklida bo'lib o'tgan Xalqaro zaytun kengashining 111-sessiyasida (kuzatuvchi maqomida) ishtirok etdi. Qishloq xo'jaligi vaziri Jamshid Xo'jayev o'z nutqi davomida O'zbekistondagi zaytun sanoatini rivojlantirishga qiziqish ortib borayotganini aytib o'tgan.

Surxondaryo viloyatida tajriba sifatida zaytun daraxtlari ekilgani va zaytunning qurg'oqchilikka chidamliligi O'zbekiston janubida yetishtirishning muhim omillaridan biri sifatida qayd etilgan.

«O'zyog'moysanoat»ning ma'lum qilishicha, shu kungacha ayrim dehqonlar sinov tariqasida ozgina yerga zaytun ekishgan. Bu yil ilk bor hukumat tashabbusi bilan 530 gektardan ortiqroq maydonga zaytun ekilmoqda. O'zbekistonning janubiy subtropik mintaqalari iqlimi zaytun yetishtirish uchun qulay hisoblanadi, ya'ni bu yerda ob-havo bilan hech qanday muammo bo'lmasligi mumkin. Ammo bu yerda eng muhimi, mamlakatda zaytun moyi va zaytun iste'molini rivojlantirish



zarurligini ko'rib chiqish kerak. Zaytun moyi iste'molchi uchun arzon muqobilga aylanmaydi, aksincha u qimmat mahsulot bo'lib, mamlakat aholisining asosiy qismida daromad darajasi pastligi sababli zaytun biznesi rivojlanishi jiddiy to'siqlarga uchrashi mumkin.

Bundan tashqari, O'zbekiston zaytun moyi eksportiga umid qilmasligi kerak, chunki jahon bozorida yuqori darajadagi raqobat mavjud. Bu yerda sifat birinchi o'ringa chiqadi va tajribasiz o'zbek ishlab chiqaruvchilari bu raqobat maydonida o'z o'rnini topishda qiyinchiliklarga duch kelishi tabiiy holatdir.

Shuningdek, geografik jihatdan O'zbekistonga yaqin bo'lgan

mamlakatlarning hech qaysisida zaytun moyi asosiy iste'mol mahsuloti hisoblanmaydi.

**Xulosa o'rnida**, zaytun moyi foydasi eng ko'p bo'lgan mahsulotlardan biri sifatida qadimdan mashhur. Undan tibbiyot, diyetologiya va kosmetologiya sohasida faol foydalaniladi. Zaytun moyi organizm tomonidan oson so'riladi, ishtahani pasaytiradi, modda almashinuvini tezlashtiradi va oshqozonga foydali ta'sir qiladi. Zaytun moyini muntazam ravishda iste'mol qilish — yurak-qon tomir kasalliklari oldini olishning yaxshi usuli: u tomirlarni mustahkamlaydi va ularni yanada elastik qiladi.

## References:

1. Scientific Encyclopedia (Ilmiy entsiklopediya), 207.
2. European Journal of Clinical Nutrition (Yevropa klinik oziqlanish jurnali), aprel 2002, 56: 114-120.
3. Archives of Internal Medicine 1998 (1998 yilgi ichki tibbiyot arxivlari); 158: 1181-1187.
4. Keyz A. , Menotti A. , Karionen MJ, «The diet and 15-year death rate in the Seven Countries Study» (Parhez va yetti mamlakatda 15 yillik o'lim foizi tadqiqoti), Am J Epidemiol 124: 903-915 (1986); Uillett VS, «Diet and coronary heart disease» (Parhez va koronarit yurak xastaligi), Monographs in Epidemiology and Biostatistics 15: 341-379 (1990); Jahon Sog'liqni saklash tashkiloti, «Diet, nutrition, and the prevention of chronic diseases» (Parhez, ozuqa va surunkali kasallikning oldini olish), JSST Tadqiqot Guruhi hisoboti, WHO Technical Report Series 797, Jeneva 1990.
5. «The importance of the ratio of omega-6/omega-3 essential fatty acids» (Omega 6/omega-3 muhim yog' kislotalarining ahamiyatlilik darajasi); [www.ncbi.nlm.nih.gov/entrez/query.fcgi?cmd=Retrieve&db=PubMed&list\\_uids=12442909&dopt=Abstract](http://www.ncbi.nlm.nih.gov/entrez/query.fcgi?cmd=Retrieve&db=PubMed&list_uids=12442909&dopt=Abstract)
6. Journal of the American Heart Association (Amerika yurak Salomatligi assotsiatsiyasi jurnali), sentyabr, 1999.
7. Archives of Internal Medicine 1998 (1998 yilgi ichki tibbiyot arxivlari); 158: 41-45.